

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EMOTSIONAL LIDERLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXPOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Salayeva Muborak Saburovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası professori

Ismoilova Nozima O'ktam qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
e-mail: ismoilovanozima12@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishning psixologik va pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Emotsional intellektning rivojlanishi bolalarning shaxsiy hamda ijtimoiy faolligini kuchaytirishi, liderlik ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratishi yoritib berilgan*

Kalit so'zlar: *emotsional liderlik, pedagogik mexanizm, psixologik mexanizm, emotsional intellekt nazariyasi, liderlik nazariyalari, bolalar psixologiyasidagi rivojlanish bosqichlari, pedagogik yondashuvlar.*

Abstract. *The article analyzes the psychological and pedagogical mechanisms of developing emotional leadership skills in primary school students. It highlights that the development of emotional intelligence enhances students' personal and social activity, creating a foundation for the formation of leadership abilities.*

Keywords: *emotional leadership, pedagogical mechanism, psychological mechanism, emotional intelligence theory, leadership theories, stages of development in child psychology, pedagogical approaches.*

Аннотация. *В статье проанализированы психологические и педагогические механизмы формирования эмоционального лидерства у учеников начальных классов. Подчеркивается, что развитие эмоционального интеллекта усиливает личную и социальную активность школьников, создавая основу для формирования лидерских навыков.*

Ключевые слова: *эмоциональное лидерство, педагогический механизм, психологический механизм, теория эмоционального интеллекта, теории лидерства, этапы развития в детской психологии, педагогические подходы.*

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki ijtimoiy va emotsional jihatdan rivojlanishlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Emotsional liderlik tushunchasi bolalarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish vas sinf jamoasida ijobiy muhit yaratishga qaratilgan qobiliyat sifatida qaraladi. Emotsional liderlik qobiliyati rivojlanishi uchun emotsional intellekt qobiliyati rivojlangan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirish masalasi bir nechta nazariy qismlarga tayanadi:

- emotsional intellekt nazariyasi;
- liderlik nazariyalari;
- bolalar psixologiyasidagi rivojlanish bosqichlari;
- pedagogik yondashuvlar.

Emotsional intellekt tushunchasi XX asr oxiridan boshlab ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanila boshlandi. O'zbek psixologiya adabiyotlarida ham ushbu tushuncha keng yoritilmoqda. Masalan, Z.Xayitova kichik maktab yoshida emotsional intellektni rivojlantirish psixologik jihatlarini tahlil qilib, uning asosiy komponentlari sifatida hissiy sezgirlik, o'zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni ajratib ko'rsatadi [1].

Demak, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirish uchun yuqoridagi komponentlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlikni shakllantirishda aynan xulq-atvoriy va vaziyatli nazariyalar muhimdir. Chunki maktab muhitida liderlik tug'ma sifat emas, balki pedagogik ta'sir, jamoaviy o'yinlar va psixologik mashg'ulotlar orqali rivojlanadigan qobiliyat sifatida shakllanadi [2].

Shu nuqtai nazardan o'zbek tadqiqotchilari - R.Baxtiyorov, D.Botirova va M.Jo'rayevalarning "Kichik maktab yoshida muloqotchanlik orqali axloqiy fazilatlarini rivojlantirish" maqolasi diqqatga sazovor bo'lib, unda bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini oshirish orqali ularning ijtimoiy va liderlik fazilatlarini kuchayishi ilmiy asoslangan[3]. Shuning uchun, bu yoshdagi bolalar o'rtasida ko'proq jamoaviy o'yinlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar psixologiyasi tadqiqotlariga ko'ra, boshlang'ich sinf yoshi (6–10 yosh) "ijtimoiy faollik va hissiy sezgirlik"ning intensiv rivojlanish davri hisoblanadi. Bu bosqichda bolalar:

- o'zini jamoa a'zosi sifatida his qilishni o'rganadi;
- kattalarning emotsional bahosiga juda sezgir bo'ladi;
- tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, guruhda o'z o'rnini topishga intiladi [4].

G.Mirzayeva o'z tadqiqotida aynan shu yoshdagi bolalarda psixologik rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlarini ko'rsatadi. Unga ko'ra, bolalarning liderlik qobiliyatlari ko'proq maktab muhiti, sinfdoshlari bilan munosabat va o'qituvchi rahbarligida shakllanadi [5].

Demak, bu bosqichda emotsional liderlikni rivojlantirish uchun ijtimoiy muhit va pedagogik yondashuvlar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Pedagogik nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'lim jarayonida emotsional liderlikni shakllantirish:

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samimiy muloqot;
- sinfdagi ijobiy psixologik muhit;



- rolli o'yinlar va dramatisatsiya mashg'ulotlari;
- baholash va rag'batlantirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi [6].

S.Maxmudovning kichik maktab yoshidagi bolalarning ta'limga psixologik tayyorgarligi haqidagi tadqiqotida ham bu jihatlar o'z ifodasini topadi. Unga ko'ra, sinfdagi pedagogik muhit qanchalik ijobiy va hissiy qo'llab-quvvatlovchi bo'lsa, bolalarning liderlik qobiliyatlari shunchalik tez rivojlanadi [7].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirish jarayonida psixologik va pedagogik mexanizmlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Psixologik mexanizmlar: hissiy o'zini anglash va boshqarish, empatiya va muloqotchanlik, motivatsiya va o'ziga ishonch kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Hissiy o'zini anglash va boshqarish – bolaning o'z emotsiyalarini tushunishi va nazorat qila olish qobiliyati liderlik uchun zarur psixologik poydevor hisoblanadi [8].

Empatiya va muloqotchanlik – sinfdoshlarning hissiyotlarini his qilish, ular bilan samimiy munosabat o'rnatish orqali bola ijtimoiy muhitda faolroq bo'ladi [9].

Motivatsiya va o'ziga ishonch – bolaning ichki ehtiyoji va tashabbuskorligi psixologik jihatdan yetakchilikni yuzaga chiqaradi [10,11].

Pedagogik mexanizmlar: Sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, rag'batlantirish va baholash tizimi

Sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni tashkil etish – o'qituvchi tomonidan ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish bolalarda liderlik qobiliyatini rag'batlantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish – rolli o'yinlar, guruh ishlari, musobaqalar orqali bolalar muloqot va hamkorlikni o'rganadi.

Rag'batlantirish va baholash tizimi – bolaning kichik yutuqlarini e'tirof etish va qo'llab-quvvatlash ularning liderlik fazilatlarini mustahkamlaydi [12,13].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirish ularning psixologik rivojlanishi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida shaxsiy his-tuyg'ularni boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish kabi emotsional intellekt elementlari o'quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Pedagogik jarayonda bu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun o'qituvchilar psixologik-pedagogik yondashuvlardan, innovatsion metodlardan hamda sinf jamoasida ijobiy muhitni yaratish usullaridan foydalanishlari zarur. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida emotsional liderlikni rivojlantirish o'quvchilarda o'ziga ishonch, ijtimoiy moslashuvchanlik va ijodiy faollikni oshiradi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamoada samarali munosabatlar o'rnatilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.





Adabiyotlar

1. Xayitova Z. Kichik maktab yoshida emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik jihatlarini // Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2023.
2. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific Progress. Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
3. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyatning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixik rivojlanishiga ta'siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - В.432-441. ISBN 978-601-06-8694-6
4. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali. Volume 2, ISSUE 1, ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. 2024. January. -Pp. 16-25.
5. Салаева М., & Косимова Ш. (2025). Роль коммуникативной компетенции в профессиональной деятельности учителя начальных классов / В International Conference On Science & Technology (Т. 1, Выпуск 2, сс. 144–153). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17824692>
6. Salayeva M., & Jo'rayeva, N. (2025). Innovatsion ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqaruv faoliyati / В Theoretical Aspects In The Formation Of Pedagogical Sciences (Т. 4, Выпуск 27, сс. 143–155). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17826195>
7. Salayeva M., & Shodmonova N. (2025). Boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam berishdagi muammolar / В Development And Innovations In Science (Т. 4, Выпуск 13, сс. 15–24). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17855816>
8. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume 2 Issue 4, April 2022. ISSN 2181-2888. Pages 136-139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>
9. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali, ISSN - 2181-2608. Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>



10. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // Scientific Progress. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>

11. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.

12. Салаева М.С., Павлова М.В. Арт-терапия как средство гармонизации и развития психики младших школьников/ «Заманагөй тәлим хәм тәрбия технологиялары: тәжірийбелер, машқалалар хәм перспективалар» атамасында Республикалық илмий-әмелий конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022 ж. – Б.412-415.

13. Салаева М.С., Ким Х.В. Формирование положительной мотивации у младших школьников к учебной деятельности// World of Scientific news in Science International Journal. 2024 Vol. 2 №. 4. – Pp.147-153. <https://worldofresearch.ru/index.php/wsjs/article/view/439>